

O'QUV DASTUR PASPORTI

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Travmatologiya va ortopediya			
O'quv dastur nomi	Bolalarda tug'ma ortopedik kasalliklarni erta aniqlash			
O'qish turi	Mavzuli malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	M.E. Irismetov, X.M. Karimov, A.R. Xoshimov, R.K. Qobilov, B.U. Xolmatov.			
Siklning umumiy soati	36 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d., professor Irismetov M.E.	t.f.n. Karimov X.M.	t.f.n. Xoshimov A.R.	Qobilov R.K.	PhD Xolmatov B.U.
Maqsad	Birlamchi bo'g'in shifokorlarining bolalarda uchraydigan eng ko'p tarqalgan tug'ma ortopedik kasalliklarni erta aniqlash, differensial tashxislash va to'g'ri yo'naltirish bo'yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirish hamda amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish.			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	oilaviy shifokorlar, umumiy amaliyot (UASH) shifokorlari, shuningdek internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirish bosqichida tegishli mutaxassislikni olganligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lgan birlamchi bo'g'in tor mutaxassislari — pediatriklar, bolalar nevrologlari, travmatolog-ortopedlar, xirurglar hamda boshqa soha vakillari uchun mo'ljallangan.			
Sikl vazifalari	- tug'ma ortopedik kasalliklarning asosiy klinik belgilari, sabablari va xavf omillarini o'rganish; - skrining hamda asosiy klinik tekshiruv (tast)larini to'g'ri bajarish ko'nikmalarini shakllantirish; - birlamchi bo'g'inda bolalarga ko'rsatiladigan dastlabki yordam va kuzatuv tamoyillarini o'zlashtirish; - kasallikni erta aniqlagan holda bemorni o'z vaqtida va asosli ravishda ortoped yoki ixtisoslashgan markazga yo'naltirish algoritmini			

	amaliyotda qoʻllay olish; ota-onalarni bolada kuzatilgan deformatsiya va kasalliklar boʻyicha xabardor qilish, shuningdek reabilitatsiya va profilaktika boʻyicha amaliy tavsiyalar bera olish.
Sikl tarkibi	1-modul. Tugʻma mushakli boʻyin qiyshiqlik. 2-modul. Son-chanoq boʻgʻimini displaziyasi. 3-modul. Tugʻma maymoqlik. 4-modul. Skolioz (tugʻma va bolalik davridagi).
Oʻqish bazalari Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy – amaliy tibbiyot markazi.	
	

